

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№4

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

STRATEGIC INTEGRATION OF BUSINESS PLANNING AND FORECASTING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	11
Sharipov K.A., Ismatullayev T.R.	
ВКЛАД БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МАХАЛЛЕЙ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН: МЕХАНИЗМЫ, ДИНАМИКА И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ	21
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH VA MOLIVAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH.....	27
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
FERMER XO'JALIKLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SUBSIDIYA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	32
Xakimov Zafar Ibragimovich	
IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA DAVLAT INNOVATSION VA INVESTITSION SIYOSATINING O'RNI	38
Xaydarova Yorqinoy Asqar qizi	
QURILISH SANOATIDA KORXONALARNI MOLIVALASHTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	44
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
ОСОБЕННОСТИ ВЫБОРА СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА	50
Абдуллаева Матлуба Нематовна, Акбарова Муфаррах Мухитдиновна	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ КОМПАЕНС-КОНТРОЛЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ	56
Халтурдиев Айтмурат Маратович	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ICHKI BELGILARI	64
Saatova Lolaxon Ergashevna	
INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA RAQOVBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARI	71
Pulatov Abdullo	
MAJBURIY IJRO ETISH CHORALARINI TAKOMILLASHTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	76
Axmedov Zafarjon Zokirjon	
МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ НА ПРЕДПРИЯТИИ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ	80
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
KORPORATIV KORXONALARDA KAPITALNI BUDJETLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	85
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
INNOVATSION MENEJMENTDA KOMMUNIKATSIYA VA TASHKILY MOSLASHUVCHANLIKNING ROLI: O'ZBEKISTON SHAROITI MISOLIDA	92
Atamatov Abdualil Salomovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING AHAMIYATI VA UNING SALOHİYATINI BELGILOVCHI OMILLAR	97
Qodirov Baxodir Tursunovich, To'rayev Qaxramon Zokirjonovich	



NAMANGAN VILOYATIDA AYOLLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK MUHITINI BAHOLASH	103
Raximova Moxigul Isroiljonovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	107
Davitova Shaxzoda Doniyor qizi	
ANALYSIS OF THE FORMATION OF MARKET DEMAND AND THE ESTABLISHMENT OF EQUILIBRIUM IN A MARKET ECONOMY	112
Kamilova Nargiza	
BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINI NANOTEXNOLOGIYA SOHASIDAGI BILIMLARNI TAQDIM ETISHGA VA O'QITISHGA TAYYORLASH METODIKASI	115
Sottarov Abdulvali Umirqulovich	
INTEGRATING AI INTO STRATEGIC MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	120
Uktamova Durdona Bakhtiyor qizi, Sultonali Umaraliyevich Mekhmonov	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA IJTIMOYIY HISOBOTLAR VA ULARNING AHAMIYATI	130
Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich	
SANOAT KLASTERINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI.....	135
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	140
Yangiboev Rustam Berdiyrovich	
MINTAQA IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....	145
Turopova Nigora Xolmurod qizi	
ЭКОЛОГИЯ ТУРИСТА КАК МЕТОД СОЗДАНИЯ КОМФОРТНОЙ И УСТОЙЧИВОЙ СРЕДЫ ДЛЯ ПУТЕШЕСТВЕННИКОВ.....	149
Наурызбаев Алиакбар Рустамович	
BINO VA INSHOOTLARNI BARPO ETISHDA PREFABRIKATSIYALASHGAN HAMDA MODULLI QURILISH TIZIMLARINI AQLLI BOSHQARUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	152
Solijonov Javoxirmirzo Obidjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA AKSIYADORLIK TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	163
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O'ZBEKISTONDA KO'CHAT YETISHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	169
Abdufarmonov Farrux Faxriddinovich	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SIFATI VA XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLIGI TAHLILI	174
Safarova Muxabbat Radjabovna	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT SIYOSATI VA DEPOZIT BAZASI DINAMIKASINING BANK LIKVIDLIGIGA TA'SIRI	178
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ISLOMIY MOLIYANING BANK TIZIMIGA INTEGRATSIYASI: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA TRANSFORMATSIYA YO'NALISHLARI	186
Adilov Zuxriddin Marip o'g'li	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ISLOMIY MOLIYANING BANK TIZIMIGA INTEGRATSIYASI: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA TRANSFORMATSIYA YO'NALISHLARI

Adilov Zuxriddin Marip o'g'li

“Orient Finans” XATB xodimi

ORCID: 0009-0000-7914-6536

E-mail: zuhriddiddin@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida islomiy moliya tamoyillarini O'zbekiston bank tizimiga integratsiya qilish jarayonlari, mavjud muammolar va istiqbolli imkoniyatlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli transformatsiyaning islomiy banklar operatsion samaradorligiga ta'siri, xususan, sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarining o'rnini ko'rib chiqiladi. Shuningdek, 2026-yilda qabul qilingan yangi qonunchilik asosida bank tizimida islomiy darchalar va alohida islom banklarini tashkil etishning iqtisodiy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: islomiy moliya, raqamli iqtisodiyot, bank tizimi, sun'iy intellekt, blokcheyn, moliyaviy texnologiyalar (FinTech), islomiy darcha, shariatga muvofiqlik, moliyaviy inklyuzivlik.

Abstract. This article analyzes the processes of integrating Islamic finance principles into the banking system of Uzbekistan within the framework of the digital economy, highlighting existing challenges and promising opportunities. The study examines the impact of digital transformation on the operational efficiency of Islamic banks, particularly the role of artificial intelligence and blockchain technologies. In addition, it emphasizes the economic importance of establishing Islamic windows and independent Islamic banks based on the new legislation adopted in 2026.

Keywords: Islamic finance, digital economy, banking system, artificial intelligence, blockchain, financial technologies (FinTech), Islamic window, Sharia compliance, financial inclusion.

Аннотация. В данной статье анализируются процессы интеграции принципов исламских финансов в банковскую систему Узбекистана в условиях цифровой экономики, рассматриваются существующие проблемы и перспективные возможности. В исследовании изучается влияние цифровой трансформации на операционную эффективность исламских банков, в частности роль искусственного интеллекта и технологий блокчейн. Также раскрывается экономическое значение создания исламских окон и отдельных исламских банков на основе нового законодательства, принятого в 2026 году.

Ключевые слова: исламские финансы, цифровая экономика, банковская система, искусственный интеллект, блокчейн, финансовые технологии (FinTech), исламское окно, соответствие нормам шариата, финансовая инклюзивность.

KIRISH

Bugungi kunda raqamli transformatsiya hayotning barcha jabhalarida, jumladan, bank-moliya tizimida ham tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda [1]. Islomiy bank tizimi global moliya bozorining eng tez rivojlanayotgan segmentlaridan biri bo'lib, uning yillik o'sish sur'ati o'rtacha 15–20 foizni tashkil etadi [2]. O'zbekiston



aholisining 90 foizdan ortig'i musulmon ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, islomiy moliyaviy xizmatlarni joriy etish nafaqat diniy ehtiyojlarni qondirish, balki iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirishning muhim omili hisoblanadi [3].

Raqamli platformalar, sun'iy intellekt va blokcheyn kabi zamonaviy texnologiyalar islomiy moliya tizimining shaffoqligini oshirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish hamda an'anaviy bank tizimi bilan integratsiyalashuv jarayonlarini jadallashtirish imkonini bermoqda [1]. Shu bilan birga, mazkur texnologiyalar shariat tamoyillariga muvofiq moliyaviy mahsulotlar yaratish, mijozlar bilan masofaviy ishlash va bank xizmatlaridan foydalanish darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotning nazariy asoslari xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlanmalariga tayanadi. Xususan, Masrina, Patmawati va Fauziah (2024) o'z tadqiqotlarida raqamli inqilob islom banklarining operatsion samaradorligini sezilarli darajada oshirishini asoslab bergan. Ularning fikricha, sun'iy intellekt asosidagi tizimlardan foydalanish shariatga muvofiqlikni tekshirish jarayonini 65 foizgacha tezlashtirish imkonini beradi [1]. Bu esa bank operatsiyalarining tezkorligi, aniqligi va shaffoqligini oshirishga xizmat qiladi.

Mahalliy olimlardan Abdushukurov (2024) va Galatov (2025) islom moliyasini O'zbekiston bank tizimiga integratsiya qilishning huquqiy va institutsional jihatlarini tadqiq etgan. Ular tomonidan olib borilgan izlanishlarda islomiy bank xizmatlarini rivojlantirish uchun maxsus normativ-huquqiy baza, shariat kengashlari faoliyati va islomiy darchalar tashkil etish zarurligi asoslab berilgan [4]. Shuningdek, I. N. Ismanov islomiy investitsiyalarning real sektorni moliyalashtirishdagi ahamiyatini alohida ta'kidlab, ularning ishlab chiqarish, qurilish va kichik biznesni qo'llab-quvvatlashdagi ijobiy ta'sirini ko'rsatib bergan [5].

Shuningdek, Islamic Financial Services Board tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda islomiy moliya institutlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish bank xizmatlari qamrovini kengaytirishi, ayniqsa, bank xizmatlaridan yetarli darajada foydalanmayotgan aholi qatlamlarini moliyaviy tizimga jalb qilish imkonini berishi qayd etilgan. Tashkilot ekspertlari blokcheyn texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan aqlli shartnomalar (smart contracts) islomiy moliyalashtirish mahsulotlarida shaffoqlikni oshirishi, tavakkalchiliklarni kamaytirishi va tranzaksiya xarajatlarini qisqartirishini ta'kidlaydi.

Bundan tashqari, Islamic Development Bank hamda Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions hisobotlarida islomiy banklar faoliyatida raqamli transformatsiya jarayonlari mobil ilovalar, masofaviy identifikatsiya, biometrik autentifikatsiya va FinTech platformalari orqali yanada jadallashayotgani qayd etilgan. Ularning fikricha, ushbu texnologiyalar mijozlar uchun xizmatlardan foydalanish qulayligini oshiradi, banklar uchun esa operatsion xarajatlarni kamaytirib, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy metod, iqtisodiy-statistik tahlil hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasida 2026-yil mart oyida qabul qilingan yangi normativ-huquqiy hujjatlar, Markaziy bank hisobotlari, xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari va United Nations Development Programme tomonidan o'tkazilgan sotsiologik so'rovnoma natijalari tahlil qilindi.

Shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlil o'tkazilib, islomiy moliya xizmatlarini raqamlashtirishning amaliy jihatlari, ularning bank tizimi samaradorligiga ta'siri hamda moliyaviy inklyuzivlikni oshirishdagi o'rni baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Raqamli transformatsiya jarayonlari islomiy moliya institutlari uchun "Islamic Finance 5.0" deb ataluvchi yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu bosqich texnologik innovatsiyalarni shariat tamoyillari bilan uyg'unlashtirish orqali operatsion samaradorlikni sezilarli darajada oshirmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli platformalarning joriy etilishi islomiy banklarda xarajatlarning daromadga nisbati (CIR) ko'rsatkichini o'rtacha 12,5 foizga kamaytirishga xizmat qilgan [1]. Shuningdek, blokcheyn asosidagi smart-shartnomalar murobaha, mudoraba va mushoraka kabi murakkab moliyaviy bitimlarning shaffoqligini va ijrosini yuqori aniqlik bilan ta'minlamoqda. Natijada xizmat ko'rsatish tezligi oshib, tranzaksiya xarajatlari qisqarmoqda hamda mijozlar ishonchi mustahkamlanmoqda.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalaridan foydalanish islomiy banklarda risklarni baholash, mijozlarni segmentatsiya qilish va firibgarlik holatlarini aniqlash imkoniyatlarini kengaytirdi. Xususan, sun'iy intellekt asosidagi algoritmlar shariatga muvofiqlikni tekshirish jarayonini tezlashtirib, qaror qabul qilish vaqtini sezilarli darajada qisqartirmoqda. Raqamli banking xizmatlarining kengayishi natijasida ilgari bank

xizmatlaridan foydalanmagan aholi qatlamlarini qamrab olish imkoniyati ortib, moliyaviy inklyuzivlik darajasi sezilarli ravishda kengaydi [1].

O'zbekiston moliya bozorida ham muhim o'zgarishlar kuzatilib, 2026-yil 27-martda islom bankchiligi mexanizmlarini joriy etishni nazarda tutuvchi yangi qonun imzolandi [6; 7]. Mazkur hujjat asosida murobaha, mudoraba, mushoraka, ijara, salam va vakala kabi moliyaviy operatsiyalar huquqiy jihatdan mustahkamlandi [7; 8]. Bu esa bank tizimida islomiy moliya mahsulotlarini kengaytirish va investorlar uchun yanada qulay muhit yaratishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ushbu jarayonni samarali nazorat qilish hamda moliyaviy mahsulotlarning shariat talablariga muvofiqligini ta'minlash maqsadida Markaziy bank huzurida 5 kishidan iborat Islom moliyasi kengashi tashkil etildi. 2026–2030-yillarga mo'ljallangan strategik dastur asosida mamlakatda kamida 10 ta islom bankini tashkil etish va yirik tijorat banklarida islomiy darchalarni joriy qilish rejalashtirilgan. Mazkur tashabbuslar iqtisodiyotga yiliga qo'shimcha 5 milliard dollargacha yangi moliyaviy resurslarni jalb qilish imkonini beradi [5; 9] (1-rasm).



Manba: Tadqiqot natijalari va statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Izoh: Rasmda raqamli platformalar yordamida bank operatsiyalari samaradorligi oshishi va 2030-yilga borib O'zbekiston moliya bozorida kutilayotgan strategik o'zgarishlar aks ettirilgan.

1-rasm. Islomiy moliya institutlarida raqamli transformatsiya samaradorligi ko'rsatkichlari¹

Biroq, integratsiya jarayonida ayrim tizimli cheklovlar saqlanib qolmoqda. Xususan, hududlarning qariyb 35 foizida yuqori tezlikdagi internet tarmog'iga ulanish imkoniyatining cheklangani raqamli islomiy moliya xizmatlarini keng joriy etish sur'atlariga ta'sir ko'rsatmoqda [1]. Shu sababli, telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish va raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Shuningdek, sohada malakali kadrlar, ayniqsa shariat auditi, raqamli islomiy moliya va FinTech yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislar yetishmovchiligi kuzatilmoqda. Mavjud ehtiyoj bilan amaldagi salohiyat o'rtasidagi tafovut qariyb 45 foizni tashkil etmoqda [1; 5]. Bu esa oliy ta'lim muassasalari va malaka oshirish markazlarida xalqaro standartlarga mos yangi o'quv dasturlarini joriy etishni taqozo etadi.

Bundan tashqari, raqamli platformalar ko'lamining kengayishi bilan bir qatorda kiberxavfsizlik masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi ikki yil davomida islomiy raqamli tizimlarga nisbatan kiberhujumlar sonining ortgani kuzatilgan bo'lib, bu holat axborot xavfsizligi tizimlarini yanada kuchaytirish zaruratini ko'rsatadi [1]. Shu nuqtai nazardan, biometrik autentifikatsiya, blokcheyn asosidagi himoya mexanizmlari va ko'p bosqichli identifikatsiya tizimlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Shunga qaramay, aholining qariyb 68 foizi va biznes subyektlarining 60 foizi diniy e'tiqodlari sababli islomiy moliyaviy xizmatlarga ehtiyoj sezayotgani ushbu sohaning istiqboli yuqori ekanligini ko'rsatadi [5; 9]. Mazkur ehtiyojni samarali qondirish orqali nafaqat moliyaviy inklyuzivlikni oshirish, balki iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va ijtimoiy adolat tamoyillarini kengroq qaror toptirish mumkin bo'ladi.

1 Muallif ishlanmasi



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda islomiy moliyaning bank tizimiga integratsiyalashuvi iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi, moliyaviy inklyuzivlikni kengaytiruvchi hamda iqtisodiyotga qo'shimcha investitsiyalar va omonatlarni jalb etuvchi muhim strategik omilga aylanishi kutilmoqda [7]. Mazkur jarayonni samarali tashkil etish uchun innovatsion FinTech mahsulotlarini shariat tamoyillari asosida xavfsiz sinovdan o'tkazish imkonini beruvchi maxsus regulyativ "sandbox" platformalarini yaratish maqsadga muvofiqdir. Bu yangi moliyaviy mahsulotlarni tezkor sinovdan o'tkazish, amaliyotga joriy etish va ularning xavfsizligini ta'minlash imkonini beradi.

Shuningdek, sohadagi malakali mutaxassislar ehtiyojini qoplash uchun oliy ta'lim tizimida raqamli islom moliyasi, shariat auditi va FinTech yo'nalishlari bo'yicha ixtisoslashgan o'quv dasturlarini keng joriy etish lozim. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish maqsadida raqamli islomiy mahsulotlar bo'yicha "DIFL" (Digital Islamic Financial Literacy) dasturlarini amalga oshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, islomiy moliyaviy bitimlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ikki tomonlama soliqqa tortish holatlarini bartaraf etish, soliq kodeksiga qo'shimcha imtiyozlar kiritish va soliq neytralligini ta'minlash orqali sohaning barqaror rivojlanishi uchun yanada qulay muhit yaratish mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, Markaziy bank va tijorat banklari hamkorligida islomiy darchalar faoliyatini kengaytirish, hududlarda raqamli infratuzilmani yaxshilash hamda kiberxavfsizlik standartlarini kuchaytirish ushbu yo'nalishning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. [M. Masrina](#), [S. Patmawati](#), [N. Fauziah](#) (2024). Digital Revolution in Islamic Banking: Towards the Islamic Finance Era 5.0. *MALIA: Journal of Islamic Banking and Finance*, Vol. 8, No. 2.
2. M.N. Zokirov (2022). Islom moliya institutlari faoliyatining asosiy xususiyatlari. *Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, Vol. 2, No. 6.
3. X.U. Po'latov (2024). Islom moliyasining rivojlanish bosqichlari. *Journal of Marketing, Business and Management (JMBM)*, Vol. 2(12), No. 12.
4. A.A. Abdushukurov (2024). Islom moliyasini O'zbekiston bank tizimiga integratsiya qilish muammolari va yechimlari. *World Scientific Research Journal*.
5. I.N. Ismanov, Z.O. Abdusalomova (2025) O'zbekistonda islom banklarining rivojlanishi va keng tarqalishining iqtisodiy ahamiyati. "Raqamli iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnal, No. 13.
6. O'RQ-1126-son "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida" qonun 27.03.2026.
7. Eldos Fozilbekov / *Gazeta.uz*/2026-yil, 28-mart "O'zbekistonda islomiy banking joriy etish to'g'risidagi qonun qabul qilindi".
8. Islomiy bank faoliyatini tartibga soladigan qonun qabul qilindi // O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti. 2026. URL: <https://uba.uz>
9. K. Muhammadiyev (2025). O'zbekiston tijorat banklari faoliyatiga islom banklari faoliyatining ta'sir etish yo'nalishlari. *Journal of Marketing, Business and Management (JMBM)*, Vol. 4, No. 6.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100